
MEROS OCHILGUNCHA MEROSXO'R VAFOT ETSA, UNING ULUSHI AVLODIGA O'TADI



Meros ochilguncha merosxo'r vafot etsa, uning ulushi avlodiga o'tadi

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga binoan meros qoldiruvchining bolalari, eri (xotini) va otanasi (farzandlikka oluvchilar) teng ulushlarda qonun bo'yicha birinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega.

Meros qoldiruvchining tug'ishgan hamda ona (ota) bir ota (ona) boshqa aka-ukalari va opa-singillari, shuningdek uning ham ota, ham ona tarafdin bobosi va buvisi teng ulushlarda qonun bo'yicha ikkinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega.

Meros qoldiruvchining tug'ishgan amakisi, tog'asi, ammasi va xolasi teng ulushlarda qonun bo'yicha uchinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega.

Qonun bo'yicha merosxo'r meros ochilgunga qadar o'lsa, unga tegishli ulush uning avlodlariga o'tadi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-07-06 17:41:42